

**TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING
METODIK MEXANIZMLARI***Yo'ldosheva Nozima Axmadovna**Yuldosheva Dildora Abdumajitovna**Termiz davlat pedagogika instituti talabalari*

Anotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritiladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va metodik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida samarali metodik mexanizmlarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar faoliyatini faollashtirish hamda pedagog shaxsining doimiy o'sishini ta'minlashning ilmiy asoslari keltiriladi. Tadqiqotda milliy va xalqaro tajribalarning integratsiyasi asosida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari ilmiy dalillar bilan asoslanadi.

Аннотация

В данной статье научно-теоретически и практически раскрываются методические механизмы повышения педагогического мастерства в образовательном процессе. Анализируется значение современных педагогических технологий, инновационных методов и методических подходов в развитии профессиональных компетенций педагогов. Кроме того, обоснованы научные основы повышения качества образования, активизации деятельности обучающихся и обеспечения постоянного профессионального роста личности педагога через эффективное применение методических механизмов. В исследовании интеграция национального и международного опыта рассматривается как ключ к совершенствованию педагогического мастерства.

Anotation

This article provides a theoretical and practical exploration of the methodological mechanisms for enhancing pedagogical mastery in the educational process. It analyzes the importance of modern pedagogical technologies, innovative methods, and methodological approaches in the development of teachers' professional competencies. The study also substantiates the scientific basis for improving the quality of education, increasing student engagement, and ensuring continuous professional growth of teachers through the effective use of methodological mechanisms. The integration of



national and international experiences is highlighted as a key factor in advancing pedagogical mastery..

Kalit so‘zlari: Pedagogik mahorat, metodik mexanizmlar, kasbiy kompetensiya, zamonaviy texnologiya, ta’lim jarayoni, innovatsion metod, metodik yondashuv, ta’lim sifati

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari masalasi O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zero, mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni ta’lim sohasida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng tatbiq etish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishni ustuvor vazifa qilib qo‘ydi. Mazkur strategiyada ta’lim jarayonida ilg‘or metodlar va texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy metodik mexanizmlar asosida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va pedagogik mahoratni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi. Ushbu konsepsiyada ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik yondashuvlariga bog‘liq ekani, shuning uchun ularning doimiy ravishda ilmiy-nazariy va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri ekanligi belgilandi. 2020-yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturi pedagogik mahoratni rivojlantirish, o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish malakasini oshirish, reflektiv yondashuvlarni keng joriy etish hamda innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishni huquqiy asosda mustahkamladi.

Ushbu hujjatlarda ta’lim sifatini oshirish bevosita o‘qituvchining metodik bilim va ko‘nikmalarini yangilab borish, kasbiy kompetensiyasini doimiy takomillashtirib borishi bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etildi. Bundan tashqari, Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish



hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori ham pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorda o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik metodlarni egallashi, xorijiy tajribalarni o'rganib, milliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishi hamda raqamli ta'lim muhitida samarali ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning kasbiy mahoratini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, "Ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilmasdan turib, yangi O'zbekistonni barpo etib bo'lmaydi" degan fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik mahoratni oshirishning samarali metodik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni keng tatbiq etish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi hal qiluvchi omildir[11].

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari davlat siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida huquqiy va metodik jihatdan mustahkam asoslangan bo'lib, bu boradagi islohotlarning samaradorligi o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, zamonaviy metodlarni egallashi va ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, mazkur mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etilishi, hamda milliy va xalqaro tajribalar asosida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir[10].

Ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari haqida gapirganda, avvalo pedagogik mahorat tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat faqatgina nazariy bilimlar majmui emas, balki o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy fazilatlarini, psixologik tayyorgarligi, ta'lim jarayonini samarali boshqarish va o'quvchilar bilan pedagogik muloqotni tashkil eta olish qobiliyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan olganda, pedagogik mahoratni oshirish uchun o'qituvchilar faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda metodik yordam ko'rsatish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish muhim metodik mexanizmlardan hisoblanadi[16].

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy refleksiya asosiy vositalardan biridir. Masalan, har bir darsdan keyin o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi, darsda qo'llangan metodlarning samaradorligini baholashi, o'quvchilar



Learning and Sustainable Innovation

faoliyatini kuzatib, ularning o‘zlashtirish darajasini o‘rganishi o‘qituvchiga kelgusi faoliyatida samaraliroq metodlarni tanlash imkonini beradi. Bu jarayon o‘z navbatida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshiradi, ta’lim jarayonida sifat va samaradorlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, refleksiya jarayoni ta’lim sifatini nazorat qilishning ichki mexanizmi sifatida xizmat qilib, o‘qituvchining metodik yondashuvlarini yangilab borishini ta’minlaydi[12].

Zamonaviy pedagogik mahoratni oshirishning muhim metodik mexanizmlaridan yana biri — innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdir. Jumladan, masofaviy ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o‘qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish orqali murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi, o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi, natijada ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi doirasida ilgari surilgan raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng tatbiq etish g‘oyasi pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini yanada mustahkamlab beradi. Shuningdek, pedagogik mahoratni oshirishda amaliy seminarlar, metodik treninglar va ustoz-shogird tizimining samarali yo‘lga qo‘yilishi ham muhim metodik mexanizmlardan hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar birgalikda olib boradigan metodik tahlillar, tajriba almashish jarayonlari, ochiq darslar va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan ustoz-shogird munosabatlari o‘qituvchilarning kasbiy o‘shishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yosh o‘qituvchilar tajribali pedagoglarning dars jarayonini kuzatib, ulardan maslahat olish orqali o‘z faoliyatini takomillashtiradi, bu esa ularda pedagogik mahoratning shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlaridan yana biri – ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llashdir[13].

O‘qituvchining o‘quvchilar individual xususiyatlarini hisobga olishi, ularning qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriq va mashg‘ulotlarni tashkil etishi nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki pedagogning metodik yondashuvlarini boyitadi. Masalan, differensial yondashuv asosida dars tashkil etilganda, turli darajadagi o‘quvchilar o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriqlarni bajaradilar, bu esa ta’lim jarayonida hamma o‘quvchilarni faol ishtirokchi etib shakllantiradi. Bundan tashqari, pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish ham metodik mexanizmlardan biri



Learning and Sustainable Innovation

hisoblanadi. Bugungi kunda Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar ta'lim tizimida pedagoglarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalar shakllangan. Ushbu tajribalarni o'rganish, o'zbek ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish orqali pedagogik mahoratni oshirishga erishish mumkin. Masalan, Singapur ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish dasturlari majburiy hisoblanadi, bu orqali pedagoglar o'z faoliyatini zamon talablariga moslab boradi[9].

Ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari o'qituvchining o'z faoliyatini refleksiya qilishidan tortib, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishga, ustoz-shogird tizimidan xalqaro tajribani milliy amaliyotga integratsiya qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli metodik faoliyatni qamrab oladi. Ularning barchasi ta'lim sifatini oshirish, pedagog shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, yosh avlodni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga samarali joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir[8].

Pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini samarali qo'llash uchun, avvalo, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirib borish, uni zamonaviy ta'lim jarayonining talablariga moslashtirish talab etiladi. Bunda metodik mexanizmlar nafaqat dars jarayonini tashkil qilishga, balki o'qituvchi shaxsining kasbiy o'sishi, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda metodik mexanizmlar o'qituvchi faoliyatining uzviy qismi sifatida qaralishi lozim. Masalan, zamonaviy pedagogikada qo'llanilayotgan interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, klaster, keys-stadiy kabi metodik mexanizmlar nafaqat bilim berishga, balki o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, metodik mexanizmlar doirasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish alohida ahamiyatga ega. Masalan, "Raqamli ta'lim resurslari" dan foydalanish, onlayn platformalar orqali ta'lim jarayonini tashkil etish, elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali o'qituvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishi oshadi, o'qituvchining pedagogik mahorati esa yangi bosqichga ko'tariladi[15].

Amaliy misol tariqasida, zamonaviy maktablarda "Virtual laboratoriyalar" orqali tabiiy fanlarni o'qitish tajribasi kengayib bormoqda. Bu jarayon o'qituvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi, o'qituvchiga esa dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Metodik mexanizmlarning yana bir muhim



jihati – o‘qituvchi tomonidan o‘z faoliyatini muntazam monitoring qilish va tahlil etish jarayonidir. O‘qituvchi o‘z darslarini kuzatish, natijalarni baholash va zarur o‘zgartirishlar kiritish orqali pedagogik mahoratini muntazam oshirib boradi. Masalan, darsdan so‘ng o‘qituvchining reflektiv tahlil qilish amaliyoti unga o‘quvchilarning faoliyatini chuqurroq tushunish va kelgusida samarali metodik yondashuvlarni tanlash imkonini beradi. Bu jarayonni takomillashtirishda “Pedagogik diagnostika” va “Psixologik kuzatuv” mexanizmlari ham alohida ahamiyat kasb etadi[14].

Ta‘lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlaridan yana biri – ustoz-shogird an‘analarini zamonaviy shakllarda qo‘llashdir. Yosh o‘qituvchilarni tajribali pedagoglarga biriktirish orqali ularda kasbiy malaka, dars o‘tish metodikasi, sinf jamoasini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan, hozirgi kunda ko‘plab ta‘lim muassasalarida mentorlik tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu nafaqat yosh kadrlarni tayyorlashda, balki ta‘lim sifatini oshirishda ham muhim rol o‘ynamoqda. Bundan tashqari, metodik mexanizmlarni samarali qo‘llashda pedagogik-psixologik treninglar ham muhim o‘rin tutadi. Treninglar jarayonida o‘qituvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, yangi pedagogik metodlarni o‘zlashtiradi va amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning dars jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs tarbiyalovchi, ijodkor, tashkilotchi sifatida o‘z rolini kuchaytiradi[7].

Ta‘lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari o‘qituvchining kasbiy shakllanishida muhim omil bo‘lib, ularning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy yondashuv va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ta‘lim jarayonida pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi kunda ta‘lim sifatini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, shaxs kamolotiga yo‘l ko‘rsatuvchi, jamiyat taraqqiyotining bosh ishtirokchisidir. Shu bois pedagogik mahoratni rivojlantirishning metodik mexanizmlari o‘qituvchining kasbiy shakllanishida, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy yondashuv va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonlari, mentorlik tizimi, trening va psixologik kuzatuv kabi mexanizmlarning samarali qo‘llanilishi o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini yangi bosqichga olib chiqadi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta‘limda metodik mexanizmlarni ilmiy asoslangan va tizimli ravishda joriy etish nafaqat



o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash imkonini yaratadi. Demak, pedagogik mahoratni oshirishning metodik mexanizmlari o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi, ta'lim sifatini yuksaltiradi va jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" asari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 184 b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022–2026 yillarda xalq ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2022.
4. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 312 b.
5. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: Fan, 1992. – 240 b.
6. Xoliqov A., Normurodov S. "Pedagogik mahorat". – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 356 b.
7. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMYIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.
8. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
9. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODEL. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
10. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024* (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
11. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
12. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
13. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH



TEKNOLOGIYASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 494-498.

14. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.

15. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.

16. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.